



UDK: 911.3:33(575.1)

Rustam RAYIMJANOV,
O'zMU Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası katta o'qituvchisi, g.f.n.
E-mail: rustam19761206@gmail.com
Nizomiddin JALOLIDDINOV,
O'zMU Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası tayanch doktoranti

O'zMU dotsenti, g.f.n. M.Egamberdiyeva taqrizi asosida

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается зарубежный опыт развитых стран по социально-экономическому развитию регионов и регулирование экономики государством в 80-90-х годах прошлого века, в основном вопросы экономического стимулирования предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: Регулирование, государственная поддержка, малый бизнес, льгота, стимул, программа, промышленное предприятие.

FOREIGN EXPERIENCE OF STATE REGULATION OF BUSINESS ACTIVITIES

Annotation

This article discusses the foreign experience of developed countries in the socio-economic development of regions and the regulation of the economy by the state in the 80-90s of the last century, mainly issues of economic incentives for entrepreneurial activity.

Key words: Regulation, state support, small business, benefit, incentive, program, industrial enterprise.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA KELITIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rivojlangan davlatlarda o'tgan asrning 80-90-yillarida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga keltirish, bunda asosan iqtisodiy rag'batlantirish chora-tadbirlari orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tartibga keltirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, kichik biznes, imtiyoz, rag'bat, dastur, sanoat korxonasi.

Kirish. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy tashkil etish va joylashtirish, xo'jalikni hududiy tashkil etishni takomillashtirish masalalari butun dunyoda dolzarb hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar o'z vaqtida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatini davlat qo'llab-quvvatlash masalalariga katta e'tibor bilan qaraganlar. Ular birinchi navbatda hududlarda tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan, qoloq, depressiv va muammoli rayonlarni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqdilar va katta yutuqlarga erisha oldilar. Shuning uchun ham ularning ushbu yo'nalishlarda bosib o'tgan tajribalarini o'rganib chiqib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hududiy iqtisodiy islohatlar doirasida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan davlatlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga keltirishda asosan iqtisodiy rag'batlantirish chora-tadbirlari keng qo'llanilgan. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga keltirishda jahon tajribasining asosiy elementi bo'lib tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni, biznesning rivojlanishi uchun rag'batlarni, hamda unga moddiy va moliyaviy resurslarni imtiyozli sharoitlarda berishni shakllantirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga doir ma'lumotlar 1980-yilda chop etilgan "Gosudarstvennoye regulirovaniye razmesheniya proizvoditel'nykh sil v kapitalisticheskix i razvivayushixsya stran", 1989-yilda chop etilgan "Regionalnoye razvitiye v kapitalisticheskix stranax v usloviyax nauchno-texnicheskogo progressa: nauchno analiticheskii obzor", 1973-yilda chop etilgan "Regionalniye issledovaniye za rubezom", 1989-yilda chop etilgan «Sotsialno-ekonomicheskoye razvitiye territoriy v usloviyax novogo ekonomicheskogo mexanizma», 1991-yilda chop etilgan «Upravleniye ekonomikoy regiona v novix usloviyax xozyaystvovaniya» (Sbornik nauchnix trudov), 1998-yilda Larina N.I., Kiselkov A.A. tomonidan chop ettirilgan "Regionalnaya politika v stranax rinochnoy ekonomiki kabi adabiyotlarda keltirilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalikni hududiy tashkil etishning xorijiy tajribasi, kapitalistik va rivojlanayotgan davlatlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni davlat tomonidan tartibga keltirish masalalari maxalliy olimlar Sh.Imomov (Regulirovaniye territorialnogo razvitiya ekonomiki Uzbekistana. 1993-y), R.Z. Rayimjanov ishlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishning maqsadi turli darajada rivojlangan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga keltirishning ilg'or xorij tajribasini tahlil qilishdan iborat. Qo'yilgan maqsad doirasida quyidagi vazifalar belgilab olindi: ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tomonidan o'tgan asrning 80-90-yillarida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga keltirish masalalarini o'rganib chiqish hamda ularning ushbu yo'nalishlarda bosib o'tgan tajribalarini o'rganish asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hududiy iqtisodiy islohatlar doirasida qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tahlil va natijalar. AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes ilmiy-texnik taraqqiyot ilgari surayotgan o'zgaruvchi sharoitlarga, yangi talablarga yirik ishlab chiqarishning o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligini oshiradi. Kichik biznes ixtisoslashuvning rivojlanishiga yordam beradi, yirik korporatsiyalarning mayda seriyali maxsulotlar ishlab chiqishidan xalos etadi, yangi maxsulotlarni qidirish va o'zlashtirish bilan shug'ullanadi, bajonidil tavakkalchilikka boradi, o'zgaruvchi talablarga tez javob bera oladi, shaxsiy iste'mol maxsulotlariga bo'lgan talabni yaxshiroq qondira oladi. U texnik jihatdan tez va arzon qayta qurollana oladi, kam kapital mablag' talab qiladi va ketgan chiqimlarning tez qoplanishini ta'minlaydi.

Federal hukumat va shtatlar hukumatlari kichik va o'rta korxonalarga turli xil ko'rinishdagi texnik yordam uchun ma'lum bir miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatib keladi. Jumladan, 1991-yilda hukumat ushbu maqsadlarga 92 mln. dollar ajratdi. Bir vaqtning o'zida Yaponiya har yili kichik biznesga texnik yordam ko'rsatuvchi 169 ta texnologik markazga 500 mln. dollar sarflab keladi.

Mayda va o'rta firmalarga konsultativ yordam ko'rsatishning yaqqol orqada qolishi munosabati bilan AQSH kongressining birlashgan iqtisodiy qo'mitasida bu yordamni kengaytirish dasturi bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tgan. Muhokama davomida mavjud tajriba batafsil tahlil qilingan va talablarga javob beradigan takliflar qabul qilingan. Bunda korxonalar juda ko'p hollarda ehtiyoj sezuvchi quyidagi texnik yordamning uch asosiy shakli ajratilgan:

- Axborot ko'magi;

- "Tez texnik yordam"

- Ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha maslaxatlar, kooperatsiyani tashkil etishga xizmat ko'rsatish, marketing xizmati va maxsulotlarni tarqatish bo'yicha maslaxatlar.

Buyuk Britaniyada hukumat kichik biznes sohasiga tadbirkorlik faoliyatining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari (soliq, xususiyashtirish, mehnat qonunlari sohasidagi choralar) ni ta'minlash yo'li orqali hamda bevosita qo'llab-quvvatlashning turli iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy meyor va usullarini qo'llagan holda ta'sir ko'rsatadi.

Hukumat kichik biznesga iqtisodiy-tuzilmaviy barqarorlashishining va iqtisodiy samaradorlik ko'tarilishining muhim omili sifatida qaragan holda unga alohida xomiylik ko'rsatib keladi.

Tadbirkorlik faolligi hamda uning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan iqtisodiy siyosatda eng avvalo soliq sohasidagi huquqiy choralap asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Bulardan eng asosiylari kichik korxonalarga soliqlarni kamaytirish, ayniqsa yuqori darajadagi tavakkalchilik bilan bog'langan biznesning yangi sohalariga kapital mablag'lar qo'yish uchun soliqlarni qisqartirish, investitsiyalar uchun yuqori soliq meyorlarini kamaytirish, mayda fermerlarga mulk solig'i uchun imtiyozlar va h.k.

Kichik tadbirkorlik sohasining kengayishiga konservatorlar tomonidan olib borilgan intensiv davlat tasarrufidan chiqarish va hususiyashtirish ishlari ancha yordam berdi. Buning natijasida 1989-yilda bu jarayon ishchilari 2 mln. kishidan ortiq bo'lgan davlat sektori korxona va firmalarining 1/3 qismini o'ziga jalb etdi. Xususiyashtirilgan korxonalar xodimlariga alohida imtiyozli shartlarda aksiyalar sotib olishda ko'proq huquqlar berildi.

Buyuk Britaniyada 1990-yillarda kichik biznesga yordam ko'rsatishning to'rtta asosiy turi ishlab chiqildi:

1. Yangi tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan kichik firmalarga maslaxatlar dasturi. Buning uchun mayda firmalar xizmati, Uels firmalarining agentligi singari maxsus tashkilotlar yaratildi.

2. Moluyavuy epdam ko'rsatish dasturi. Bu dastur yil biznesni tashkil etish yoki kengaytirishga, kichik biznes sohasida tadbirkorlarni tayyorlashga moliyaviy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Bunday dasturlar qatoriga "Grantlar sxemasi", "Korxonalarni tashkil etishda yordam ko'rsatish sxemasi", "Kreditlarni kafolatlash" va b.

3. Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada faoliyat ko'rsatayotgan kichik firmalarga yordam ko'rsatishning hududiy dasturlari. Ushbu dasturning amalda qo'llanilishida birmuncha qoloq tarmoqlarda kichik biznesga yordam beruvchi Yevropa hududiy rivojlantirish fondi ham qatnashmoqda.

4. Mayda firmalarining eksport faoliyatini rag'batlantirish dasturi. Bu xil dastur maxsus britan dengiz orti savdosi byurosi tomonidan ishlab chiqiladi.

Britaniya hukumati kichik biznesga imtiyozli kreditlar ajratish siyosatini faol olib bormoqda. Buyuk Britaniyaning har bir banki o'zining xususiy kredit ajratish tizimiga egadir. Masalan, "Barklays" banki kichik biznesni tashkil etish va kengaytirish uchun kredit ajratishda ikki dasturdan foydalanadi. Birinchi dastur doirasida ko'zda tutilayotgan kredit 5 mingdan 10 ming funt sterlinggacha 5 yil muddatga beriladi. Ikkinchi dasturda esa 5 mingdan to 500 ming funt sterlinggacha bo'lgan kreditlar ikki yildan yigirma yilgacha korxonalarni sotib olishga, jihozlarga ega bo'lishga va boshqalarga berilishi ko'zda tutiladi.

Hukumat tomonidan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator qo'shimcha choralalar ham ishlab chiqilgan. Jumladan, kichik firmalarni bino va jihozlarga bo'lgan investitsiyalarning birinchi 50 ming funt sterlinggacha soliqdan ozod qilish, mol-mulkni meros qoldirishga bo'lgan soliqdan ozod etish va b.

90-yillar boshlaridan Britaniya sanoati Konfederatsiyasi "Biznesni kengaytirish dasturi" doirasida kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish uchun yangi qo'shimcha manbani taklif qildi. Bu manba asosan kichik biznes bilan aloqador bo'lgan va uning rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardan maxsus to'lovlarni olish yo'li bilan amalga oshirildi.

U yoki bu rag'batlarni tanlash tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadlariga bog'liqdir. Masalan, 90- yillarda Buyuk Britaniyada grafliklar miqyosida quyidagi 19 xil rag'bat turlari mavjud edi:

1. Grantlar: (biznesni boshlash uchun; o'qitishga; ish o'rinlarini saqlab qolishga; ko'chirish harajatlari uchun; ishsizlarni yollash uchun; qayta qurish uchun; asosiy jixozlar uchun; binolarni yaxshilash uchun; innovatsiya uchun)

2. Biznes uchun qarz

3. Sanoat maydonlari bilan ta'minlash

4. Bino bilan ta'minlash

5. Renta to'lovidan ozod etish

6. Kafolatlar

7. Boshqa moliyaviy yordam turlari

8. Tadbirkorlik fondidan yordam

9. Kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash

10. Ishga aloqador bo'lgan maslaxatlar bilan ta'minlash

11. Xususiy sektorda o'z ulishi bilan qatnashish

12. Ijtimoiy sektorda o'z ulishi bilan qatnashish
13. Hududiy o'rtacha milliy darajaga ko'tarilish
14. Hududiy o'rtacha maxalliy darajaga ko'tarilish
15. Hududni texnik yordam orqali ko'tarish
16. Moliyalashtirish manbalarini tanlash uchun yo'l-yo'riq
17. Mahalliy bozorlar to'g'risida ma'lumot bilan ta'minlash
18. Biznesga mukofotlar to'g'risida ma'lumot bilan ta'minlash
19. Quyidagi dasturlar bo'yicha o'qishga jalb qilish
- a) yoshlar b) xunarmandchilik v) ish bilan bandlik

Fransiyada ham kichik biznesga alohida e'tibor qaratiladi. Mayda kompaniyalar bandlik darajasini oshirish, texnologik yangiliklarni jopiy qilish, fondlarni yoshartirish uchun muhim hisoblanadi. Shu bilan bog'liq holda davlat miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda unga uzviy bog'langan qism sifatida kichik firmalarni qo'llab-quvvatlash vazifasi kiritilgan.

Kichik biznes uchun alohida sharoitlar yaratish Fransiyada keng ko'lam olgan. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun xayrixoxlik ko'rsatishda hukumat tomonidan moliyaviy, soliq va ma'muriy choralarni qamrab olgan kompleks reja ishlab chiqilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu peja o'z davridagi eng rivojlanganlaridan biri hisoblangan. 90-yillarda Fransiyada mayda va o'rta korxonalar 1500 xildan ortiq yordam turlarini olishlari mumkin bo'lgan. Bular orasida muhim o'rinni moliyaviy yordam turlari egallagan. Fransuz hukumati katta ahamiyatni moliyaviy rag'batlarga qaratgan. U yangi korxonalarning yaratilishi, qoloq rayonlarga firmalarning ko'chirilishi, investitsiyalarning o'sishi, kichik va o'rta korxonalarning bir-birlari bilan hamkorligini rag'batlantirish uchun ko'zda tutilgan imtiyozlarni beradi. Davlat kichik va o'rta firmalarga kreditlar ajratuvchi bir qator tashkilotlarni yaratdi. Hududiy rivojlantirish jamiyati, Sanoatni rivojlantirish instituti, Yangiliklarni moliyalashtirish bo'yicha kompaniyalar shular jumlasidandir.

80-yillar boshida kreditlarni kafolatlaydigan Milliy fond faoliyat yuritgan. Fond kichik va o'rta korxonalarga tavakkal kapital berish bo'yicha kompaniyaga birlashtirilgan. U kichik biznesga turli moliyaviy tashkilotlar tomonidan berilgan qarzlarning 65 foizgacha bo'lgan qismini kafalligini ta'minlagan.

Fransiyada ko'p qo'llaniladigan soliq imtiyozlari choralariga quyidagilarni kiritisa bo'ladi:

- Ish faoliyatining dastlabki ikki yilida korxonalarni butunlay foyda solig'idan ozod etish, uchinchi yili 75 foiz, to'rtinchi yili 50 va beshinchi yili 25 foiz;

- Ish faoliyatining birinchi ikki yilida egallagan hududga bo'lgan soliqlardan ozod etish;

- Kapitalni pul ko'rinishida ko'paytirayotgan korxonalarga imtiyozlar berish;

- Asbob-uskunalar uchun tezlashtirilgan amortizatsiya rejimini kiritish va x.k.

Yaponiyada kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan rag'batlantirish korxonaning ro'yxatdan o'tib to rivojlangunga qadar bo'lgan jami bosqichlarida amalga oshiriladi. Buning uchun davlat turli xil iqtisodiy vosita va usullar zahirasidan foydalanadi. Bular qatoriga umumiy va maqsadli imtiyozli qarz va kreditlar, soliq imtiyozlari, axborot va dasturiy xizmat ko'rsatish, kadrlarni tayyorlash va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Yaponiyada kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyalashtirish tijorat banklar bilan bir qatorda savdo va sanoat markaziy kooperativ banki, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish bo'yicha davlat korporatsiyasi, moliyalashtirish bo'yicha xalq korporatsiyasi singari maxsus hukumat va xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni asosiy yo'nalishi bo'lib soliq imtiyozlari hisoblanadi.

Germaniyada kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning maxsus tizimi yaratilgan. Davlat yordamini olishning asosiy sharti kichik va o'rta korxona yirik kompaniyaning sho'ba firmasi bo'lmasligi hamda yirik firmaning kichik va o'rta tadbirkorlikning kapitalida ulushi 25 foizdan oshmasligi kerak. Davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning choralariga quyidagilarni kiritisa bo'ladi:

- Maslahat xizmatlari ko'rsatish;

- Zapp bo'lgan ma'lumotlarni (axborotlarni) bepul berish;

- Personalni tayyorlashga va uning malakasini oshirishga yordam;

- Moliyaviy yordam berish, kreditlarni birmuncha past foizlarda berish va qarzni uzishning imtiyozli sharoitlarini yaratish;

- Soliq imtiyozlari berish;

- Innovatsion soxalarga yordam;

- Eksport faoliyatiga yordam.

Xulosa va takliflar. Tartibga keltirishdagi horijiy tajribani o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin. Qoloq va kam rivojlangan hududlarni rivojlantirishda quyidagilar namoyon bo'lmoqda. Bular o'z korxonasini qurayotgan kompaniyalar va tadbirkorlarga kredit va subsidiyalarni imtiyozli tizimini yaratish, sanoat rivoji uchun qaytarilmaydigan ssuda berish, ishchilarni texnik o'qitish uchun mablag' ajratish, korxonalarni ko'chirish uchun ketgan harajatlarni ma'lum qismini qoplash, turli soliq imtiyozlari, sanoat korxonasi qurilishi yakunlanganidan so'ng ma'lum vaqtgacha soliqlarni xalos etish, elektr energiya, yer, suv va transport uchun kamaytirilgan narx va ta'riflarni belgilash, davlat mablag'lari hisobiga infrastrukturani yaratish va takomillashtirish, qoloq rayonlar rivojlanishini maxsus xukumat dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalda tadbiq etish, rivojlanish rayonlarida joylashgan xususiy korxona va kompaniyalarga yirik davlat buyurtmalari va boshqalar.

Shunday qilib rivojlangan kopitalistik davlatlardagi hududiy siyosatning yo'nalishlari qaytadan taqsimlash harakteriga va investitsiyalarni joylashtirishni o'zgartirish maqsadiga ega. Bu maqsadga faqatgina hududlararo xalq ho'jaligi tarmoqlarini bir meyorda rivojlantirilishi va muammoli rayonlarda yangi korxona va firmalarni o'rnatishiga moliyaviy imtiyozlar berilishi natijasida erishiladi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, respublikamiz sharoitida chet davlatlarning hududiy tartibga keltirish tajribalari asosida quyidagilarni bosqichma-bosqich qo'llash lozim:

- Kam rivojlangan sanoat rayonlarida infratuzilma ta'minoti bo'yicha faoliyat

- Muammoli rayonlarga xususiy sanoat kapital mablag'larini investitsiya orqali kiritishini rag'batlantirish

- Nisbatan sanoat rivojlangan aglomeraqiya va rayonlarda ma'muriy yoki moliyaviy rag'batlarni kamaytirish.

- Qishloq xo'jaligi yaqqol ustunlik qilayotgan hududlarga sanoat kiritilishini tezlashtirishni rag'batlantirish.

ADABIYOTLAR

1. Государственное регулирование размещения производительных сил в капиталистических и развивающихся стран. Москва, "Мысль" 1980г. -424стр.
2. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. Москва, 2000г., -495стр.
3. Ларина Н.И., Кисельков А.А. Региональная политика в странах рыночной экономики. Москва, "Экономика", 1998г., -172стр.
4. Имамов Ш.Б. Регулирование территориального развития экономики Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание д.э.н. Т.: 1993. – 45-б.
5. Райимжанов Р.З. Фарғона минтақаси иқтисодий салоҳиятидан оқилонга фойдаланиш ва ривожлантириш масалалари. г.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация Автореферати. Т.: 2006.24-б.
6. Региональное развитие в капиталистических странах в условиях научно-технического прогресса: научно-аналитический обзор. Москва, "ИНИОН", 1989г., -39 стр.
7. Региональные исследование за рубежом. Москва, «Наука», 1973г., -462 стр.
8. Социально-экономическое развитие территорий в условиях нового экономического механизма. Сборник статей. Москва, ЦЕМИ, 1989г., -215 стр.
9. Управление экономикой региона в новых условиях хозяйствования. Сборник научных трудов. Новосибирск, 1991г., -148стр.
10. Tojiyeva Zulkhumor Nazarovna, Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, The Socio-Economic Aspects of Demographic Development of Rural Areas of The Republic of Uzbekistan. Australasian Journal of Regional Studies, Special issue, 2021.pp.4-18.
11. Tojiyeva Z.N., Dusmanov F.A., Ibragimov L.Z. (2020). Divorcing procedures in Uzbekistan and its territorial features. International journal of scientific & technology research. 9, (1), 4096-4100. <http://www.ijstr.org/paper-references.php?ref=IJSTR-0120-29731/>.